



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI CHIMBOY TUMANIDA QORAMOLLARDA PASTERELLYOZ KASALLIGI VA UNING PROFILAKTIKASI

Rejepbayev J.E., Nurimova P.W.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali

Kirish. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachiligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, go'sht, sut, teri va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda qoramolchilikning o'rni beqiyosdir. Shu sababli, qoramollarda uchraydigan yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va davolash chorvachilik sohasida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Qoramollarda uchraydigan kasalliklar orasida "Pasterellyoz" kasalligi alohida o'rin tutadi. Bu kasallik ko'plab iqtisodiy zarar keltiradi — hayvonlarning o'limi, mahsuldorlikning kamayishi, em-xashak sarfining ortishi va davolash xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Ayniqsa, Chimboy tumani sharoitida iqlimning keskin kontinental bo'lishi, namlik va sovuqning mavsumiy o'zgarishlari, shuningdek, chorvachilik komplekslarida ba'zan gigiyenik talablarning to'liq bajarilmasligi kasallikning tarqalishiga qulay sharoit yaratadi.

Pasterellyoz kasalligi *Pasteurella multocida* va *Pasteurella haemolytica* bakteriyalari tomonidan qo'zg'atiladi. Bu mikroorganizmlar atrof-muhitda uzoq yashay olmaydi, biroq sovuq, nam joylarda va hayvonlar o'rtasida tez tarqaladi. Kasallik nafaqat qoramollarda, balki qo'y, echki, cho'chqa va qushlarda ham uchraydi, bu esa veterinariya sohasida uni muhim epidemiologik muammo sifatida o'rganishni taqozo etadi. So'nggi yillarda Chimboy tumanida pasterellyoz holatlari ayrim chorvachilik fermalarida qayd etilgan. Kasallikning paydo bo'lishi ko'pincha hayvonlarning immunitetining pasayishi, noto'g'ri boqish sharoiti, sovuq, nam va stress omillariga bog'liq bo'lgan. Shu sababli, ushbu hududda pasterellyoz kasalligini chuqur o'rganish, uning tarqalish sabablari va oldini olish choralarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Kasallikning tarqalish sabablari. Pasterellyoz kasalligining tarqalishiga ko'plab biologik, iqlimiy va xo'jalik omillar sabab bo'ladi. Bu kasallik ko'pincha qoramollar o'rtasida yuqori darajada yuqumli bo'lib, bakteriya hayvon organizmiga asosan nafas olish yo'llari orqali kiradi. Shuningdek, u ovqat, suv yoki kontakt yo'li bilan ham yuqishi mumkin. Kasallikning asosiy tarqalish sabablari biri, Iqlim va atrof-muhit omillari hisoblanadi. Chimboy tumanida iqlimning keskin kontinental bo'lishi yozda issiq, qishda esa sovuq havoning keskin almashib turishi hayvonlarda stress holatini yuzaga keltiradi. Namlikning ortishi va shamollatilmaydigan joylarda saqlash bakteriyalarning rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi. Kuz va bahor fasllarida haroratning o'zgaruvchanligi hayvonlarning immunitetini pasaytiradi, bu esa infeksiya tarqalish xavfini oshiradi. Gigiyenik sharoitning yomonligi, Ferma yoki molxonalarda tozalik qoidalariga rioya qilinmasligi, go'ngning o'z vaqtida tozalanmasligi mikroblar ko'payishiga sabab bo'ladi. If los suv va chirigan yemlar orqali bakteriyalar hayvon organizmiga kirib boradi. Hayvonlarni bir joyda siqib saqlash ham infeksiya tez tarqalishiga olib keladi. Transport va stress omillari, Hayvonlarni uzoq masofalarga tashish paytida stress, charchoq, oziqlanishning yomonlashuvi immunitetni pasaytiradi. Transport paytida havo almashinuvi yomon bo'lsa, nafas yo'llari orqali bakteriyalar tez tarqaladi. Yangi hayvonlarning kiritilishi, Karantinga olinmagan yangi hayvonlar sog'lom podaga qo'shilsa, ular yashirin tashuvchi (bakteriya tashuvchi) bo'lishi mumkin. Bu holatda kasallik butun poda orasida tez yoyiladi. Immunitetning pasayishi sifatini ozuqaning yetishmasligi, vitamin va mineral moddalar tanqisligi, sovuq va nam muhit hayvonlarda tabiiy qarshilikni kamaytiradi. Pasterellyoz ko'pincha boshqa kasalliklardan keyin, masalan, bronxopnevmoniya yoki virusli infeksiyalardan so'ng yuzaga chiqadi. Yuqtirgan hayvonlar va tashuvchilar kasallikka chalingan yoki bakteriyani tashuvchi hayvonlar burun ajralmalari, so'lak, siydik va najas orqali infeksiyani atrof-muhitga chiqaradi. Sog'lom hayvonlar bu ajratmalar bilan aloqa qilganda tezda

yuqtirib oladi. Shuningdek, kemiruvchilar, qushlar va hasharotlar ham bakteriyani tashuvchi vosita bo'lishi mumkin.

Kasallikning profilaktikasi; Pasterellyoz kasalligiga qarshi kurashda profilaktika choralari eng muhim o'rin tutadi. Chunki kasallik yuzaga kelgandan keyin uni davolash qiyin va iqtisodiy jihatdan zararli bo'ladi. Shu sababli, Chimboy tumani sharoitida kasallikning oldini olish uchun kompleks veterinariya-sanitariya tadbirlarini olib borish zarur hisoblanadi.

1. Vaksinatsiya (emlash), Pasterellyozning oldini olishda emlash eng samarali usullardan biridir. Qoramollar inaktivatsiyalangan pasterellyoz vaksinalari bilan yiliga ikki marta bahor (mart–aprel) va kuz (sentyabr–oktyabr) oylarida emlanadi. Yosh buzoqlar onasidan ajratilgach, 20–25 kun o'tib birinchi marta emlanadi, keyingi emlash 6 oy o'tgach takrorlanadi. Vaksinatsiya sog'lom hayvonlarga, stress holatida bo'lmagan paytda, veterinariya mutaxassisi nazoratida amalga oshiriladi.

2. Sanitariya-gigiyena choralariga rioya etish, Ferma va molxonalarni muntazam tozalash, go'ngni o'z vaqtida chiqarib tashlash, namlikni kamaytirish zarur. Xonalar yaxshi shamollatiladigan, ammo sovuq havo kirmaydigan tarzda qurilgan bo'lishi kerak. Ichimlik suvi toza va sovuq bo'lmasligi, oziqa esa sifatli, mog'orlanmagan bo'lishi shart. Har bir poda uchun alohida idishlar va asboblari ishlatilishi lozim.

3. Karantin tadbirlari. Yangi keltirilgan hayvonlar kamida 30 kun davomida karantinda** saqlanadi. Bu davrda ularning sog'lig'i kuzatiladi, kerak bo'lsa, laborator tahlillar o'tkaziladi. Faqat sog'lom hayvonlar mavjud podaga qo'shiladi.

4. Dezinfeksiya va deratizatsiya. Molxonalar, ozuqa saqlanadigan joylar va asbob-uskunalar formalinning 2–3% eritmasi, xlorli ohak yoki krezol eritmasi bilan muntazam dezinfeksiya qilinadi. Bakteriyani tashuvchi kemiruvchilar va hasharotlarga qarshi deratizatsiya (zararkunandalarga qarshi kurash) ishlari olib boriladi.

5. Oziqlantirish va parvarish. To'yimli, vitamin va mineral moddalarga boy ozuqa berish hayvonlarning immunitetini mustahkamlaydi. Qishda sovuq va namlikdan saqlash, yozda esa quyosh urishidan himoyalash kerak. Hayvonlarga doimo toza suv berilishi shart.

6. Stress omillarini kamaytirish. Hayvonlarni ortiqcha siqish, uzoq masofaga tashish yoki bir joydan ikkinchi joyga tez-tez ko'chirishdan saqlanish kerak. Transport paytida hayvonlar orasida yaxshi shamollatish ta'minlanadi.

7. Veterinariya nazorati. Har bir chorvachilik xo'jaligida veterinariya xodimi tomonidan muntazam sog'liq tekshiruvlari o'tkazilishi lozim. Kasallikka gumon qilingan hayvonlar zudlik bilan sog'lomlardan ajratiladi va laborator tekshiruvga yuboriladi. Kasallik aniqlangan hollarda butun fermada profilaktik dezinfeksiya ishlari amalga oshiriladi.

Xulosa. Pasterellyoz kasalligiga qarshi samarali kurashish uchun kompleks profilaktika choralari vaksinatsiya, gigiyena, karantin va veterinariya nazoratini birgalikda olib borish zarur. Chimboy tumanidagi chorvachilik xo'jaliklarida ushbu tadbirlarni muntazam amalga oshirish orqali kasallikning oldini olish, qoramollar sog'lig'ini saqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakirov B "Hayvonlar kasalliklari" Samarkand 2019.
2. Bakulov, I.A. Epizootology with microbiology. / I.A. Bakulov, V.A. Vedernikov, A.JI. Semenikhin. Moscow: Kolos, 2000.
3. Dzhupina, S.I. Factorial infectious diseases of animals / S.I. Dzhupina // Veterinary Medicine. -№ 11.- 2001.
4. Shapulatova Z. Zh. Microbiology. Samarkand 2017.
5. Абдурахманов, А. Т. Ветеринария эпизоотологияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2018. – 352 б.

6. Алимов, М. Ш., Худайбергенов, Ж. Т. ****Qoramollarning yuqumli kasalliklari va ularni oldini olish choralari.** – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 280 b.
7. Хакимов З., Уринов У., Саидова М., Нарманов О., Эрназаров Д., Ходжаева З., ... и Очилов Ю. (2025). Биоразнообразие насекомых в Узбекистане: от обширных степей до берегов Каспия – краеугольный камень евразийских экосистем. Каспийский журнал экологических наук, 23 (4), 1101-1105.
8. Ниязов Х., Эрназаров Д., Авезимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В BIO Web of Conferences (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.
9. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidoii Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (Vol. 5, pp. 69-73).

KEGEYLI TUMANIDAGI QORAMOLLAR XLORORGANIK BIRIKMALAR BILAN ZAHARLANISHINING KLINIK BELGILARI

Rejebbayev J.E., Kidirniyazova K.T.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Nukus filiali*

Kirish: Respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida shu jumladan, qishloq xo'jaligi va uning ajralmas qismi hisoblangan chorvachilikda o'tkazilayotgan islohatlar o'zini ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilayotganligini keltirish mumkin. Binobarin yangi tashkil yetilgan fermer xo'jaliklari ilmiy va ommaviy tavsiyalar bilan ta'minlash, ularni rentabillik xo'jaliklariga aylantirish sohani istiqbolini belgilaydi. Chunki keyingi besh yilda chiqarilgan farmon va qarorlar aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun tizimli mavjud zamonaviy texnologiya, hayvonlar zotlarini tanlash ozuqa qo'shimchalari hamda turli zararkunandalar va kasalliklarga qarshi pestisidlar yordamida kurash olib borish kabi tadbirlarni o'tkazish talab etiladi.

Shu tufayli zamonaviy kimyoviy pestisidlar ta'siridan yuzaga keladigan xavf-xatarni kamaytirish, ularning insonlarga, foydali hayvonlar va tashqi muhitning boshqa joylariga o'tkir zaharlovchi darajasini pasaytirish maqsadida, ularni qo'llashda qattiq talablar qo'yilgan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida xususan chorvachilikda xlororganik birikmalar keng qo'llaniladi.

Men magistrlik ilmiy ishimni bajarishda xlororganik birikmalari toksikologiyasini o'rganishga harakat qilaman. Chunki bu zaharli preparat hozir veterinariya amaliyotida va chorvachilikda hayvonlarni ektoparazitlariga qarshi kurashishda keng qo'llanilmoqda. Shu sababli qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida ushbu zaharli preparatlar bilan zaharlanish holatlari ko'p uchramoqda.

Qishloq xo'jaligida XOBlar katta e'tibor qaratilgan. XOBlar zararli hashoratlar, kanalar, patogen zamburug'larga qarshi keng diapazonli ta'sirga ega. Ularni ko'pchilik preparatlari tez buzilmaydigan, yuqori zaharli va profalangan kumulyativ xususiyatga ega:

Zaharlilik darajasi bo'yicha XOBlar quyidagilarga bo'linadi:

- 1.Kuchli zaharlilar-xlorli aralashma, geksa xoranni gamma-izomeri.
2. Yuqori zaharlilar: -dixloretan, geksa xorbutadien, polixlor kamfen, tiodan
- 3.O'rta- zaharlilar DDT, DDD, polixlor pinen, polixlor butan.
- 4.Kam zaharlilar –tedion, milbeks, ftalan, dilor.